

## OLIV TA'LIMDA QO'LLANILADIGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Z.U.Umarova QDPI dotsenti,  
G.Ibroximova. talaba

### Аннотация

Oliy ta'limda keng qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: muammoli o'qitish, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalar, rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari, o'qitishning tabaqalashtirilgan va individual texnologiyasi, kompyuterli ta'lim texnologiyasi.

**Kalit so'zlar:** *Pedagogik texnologiya, rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari, o'yinli texnologiyalar, o'qitishning tabaqalashtirilgan va individual texnologiyasi, kompyuterli ta'lim texnologiya*

### Аннотация

Педагогические технологии, широко применяемые в высшем образовании: проблемное обучение, технологии развития критического мышления, технологии развивающего обучения, дифференцированная и индивидуальная технология обучения, технология компьютерного обучения.

**Ключевые слова:** педагогическая технология, развивающие образовательные технологии, игровые технологии, дифференцированная и индивидуальная технология обучения, компьютеризированная образовательная технология

Oliy ta'limda keng qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: muammoli o'qitish, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalar, rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari, o'yinli texnologiyalar, o'qitishning tabaqalashtirilgan va individual texnologiyasi, kompyuterli ta'lim texnologiyasi. Biz ma'lumotlarni qanday o'zlashtiramiz?

O'qigan vaziyatda – 10%, Ko'rgan vaziyatda – 30% ,Boshqalar bilan bahslashganda – 70%, Xususiy xissiy kechirmalar boshdan kechirgan paytda-90%, Xususiy xissiy kechirmalar boshdan kechirgan paytda-90% - 100%.

*Pedagogik texnologiya* – bu ta'lim shakllarini muqobillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir”(YuNESKO)

## Sport o'yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg'ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

“*Pedagogik texnologiya* – bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir”(N.Saidaxmedov, O.Ochilov)

“*Pedagogik texnologiya* – pedagogning o‘qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan sharoitlarda ko‘rsatgan tizimli ta’siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarini intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy xodisa”(B.Ziyomammedov)

“*Pedagogik texnologiya* – pedagogik jarayonni boshqarish omili sifatida quyidagi mazmunga ega: PT - ta’lim jarayonini loyihalash asosida tashkillashtirish, uning samarali natijasini kafolatlovchi hususiyatlarga, (pedagogik mahorat, pedagogik takt, pedagogik stil, pedagogik aniqlik) pedagog faoliyatining innovatsion hususiyatlariga (ijodkorlik – kreativlik, yuksak professionalizm – akmeologiya, tahliliy va tanqidiy yondoshuv - refleksiya) tayangan xolda ta’limning yangi shakl va usullarini yaratish va amaliyotga joriy etishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriyadir”(S.Yo‘ldosheva)

“*Pedagogik texnologiya* – o‘quv jarayoniga yondoshgan xolda oldindan belgilab olingan maqsad ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib o‘quv jarayonini loyihalashdir”(M.V. Klarin)

*Pedagogik texnologiya* - ta’lim jarayoniga yangicha yondoshuv bo‘lib, u pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart xolga solib, uning optimal loyihasini tizib chiqish bilan bog‘liq ijtimoiy xodisadir”(V.L. Farberm)

Pedagogik jarayonda talaba va o‘qituvchi munosabatiga yo‘naltirilgan texnologiya turlari: Avtoritar texnologiyalar. O‘qituvchi asosiy sub’ekt - boshqaruvchi, talab qiluvchi, yetaklovchi sifatida maydonga chiqadi. Talaba shaxsi esa tobe bo‘lib, barcha talablarni bajarishi kerak. Bunda talabaning qiziqishlari va extiyojlari ta’limni tashkil etish jarayonida e’tiborga olinmaydi. U bajaruvchi sifatida maydonga chiqadi. Didaktik markazlashgan texnologiya. Bu texnologiya markazida ta’lim jarayoni turadi. Aynan didaktik vosita yordamida shaxsni shakllantirish, unda kasbiy ko‘nikmalarni hosil qilish maqsad qilib qo‘yiladi. Bunda o‘qituvchi yetaklovchi (amaliyotchi) sifatida maydonga chiqadi. Ikki tomon ham (o‘qituvchi va talaba) bir xil pozitsiyani egallaydi. Asosiy maqsad ta’lim olish va tomonlar hamkorlikda ish olib boradilar. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar. Ta’lim tizimining markazida talaba shaxsi turadi. Talabaning rivojlanishiga sog‘lom psixologik muhitni tashkil qilish, nizo va inqirozlardan asrash, tabiiy imkoniyatlarini rivojlantirish, qobiliyatini o‘stirishga qaratilgan. Shaxsga yo‘nal-tiril-gan

## Sport o'yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg'ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

texnologiyalar to'rt guruhga bo'лина-di. Insoniy texnologiyalar. Bu texnologiya o'zining insoniyligi bilan, psixoterapevtik yo'nalishi bilan ajralib turadi. Ushbu texnologiyaning mazmuni talaba shaxsini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va talabani ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Talabaga nisbatan hurmat va mehr bilan qarash va majburiylikdan voz kechishdan iboratdir. Hamkorlik texnologiyasi. Bu texnologiya demokratiya, hamkorlik, tenglik kabi g'oyalar asosiga qurilgan. O'qituvchi va talaba orasidagi munosabatlar sub'ekt - sub'ekt sifatida qaraladi. Birgalikda ta'lim jarayoni tashkil etiladi va birgalikda ijod etiladi. Erkin tarbiya texnologiyasi. Talabaga tanlash, mustaqillik erkinligi beriladi. Talaba o'zi tanlagan vosita va mazmuni to'liq qabul qiladi hamda bu faoliyatni xohish bilan bajaradi. Ichki ehtiyoj bilan uyg'unlik hosil bo'ladi. Ezoterik texnologiya. Ezoterik bilimlar (ongdan tashqari) qonuniyatlarni o'rganish orqali haqiqatga yaqinlashish nazarda tutiladi. Muammoli o'qitishning maqsad va vazifalari: Maqsadi - faol shaxslarni tarbiyalash. Vazifasi- talabalarni faol bilish jarayoniga undash, tafakkurida ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirish, talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ijodiy fikrni rivojlantirish, muammolarni yechimini topish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

O'qitishning asosiy maqsadi – bilish. Bilish – fikrlashga undaydi. Fikrlash – muammoli vaziyat kutilmagan holat va mahliyo bo'lishdan boshlanadi. Fikrlash tarbiyasida e'tibor beriladi: Mantiqiy; Tanqidiy; Ijodiy fikrni rivojlantirishga. Fikrlash tarbiyasida e'tibor berilmaydi: Fikrni boshqarishga; Fikrlash axloqini tarbiyalashga; Fikr tarbiyasiga. Fikr xususiyatlari: Fikr quvvatga ega; Fikr o'z kuchini so'zda saqlaydi; Fikr insonning biologik maydoniga va psixikasiga ta'sir ko'rsatadi. Fikr turlari: Ajratuvchi-yestruktiv; Biriktiruvchi- konstruktiv. Muammoli o'qitishda faoliyat taqsimoti. O'qituvchi - muammoli vaziyatni yaratadi, mantiqiy fikrlar tadbirlarini tashkil etadi, tadqiqot faoliyatlari qonuniyatlarini shakllantirish orqali bilish faoliyatini jonlantiradi. Talaba- muammoli vaziyatni tahlil, umumlashtirish, intellektual mashaqqatlarni hal qilish va xulosa chiqarish orqali - bilishga bo'lgan qiziqishni qondiradi. Muammoli o'qitishning mohiyati - O'qituvchining bilish faoliyatiga boshchilik qilish bilan belgilanadi, ya'ni qiziqtirishi, mustaqil ishga rahbarlik qiladi, kerakli jixoz va materiallar, axborotlar bilan ta'minlaydi. Talabalar aqliy faoliyatining muhim bosqichi: -muammoni yechish usulini o'ylab topish, gipoteza qo'yish va gipotezani asoslashdan iborat. Muammoli vaziyatning belgilari, vazifalarni bajarish uchun talabalarga beriladigan ko'rsatma, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi. Muammoning tarkibiy qismlari- ma'lum (aniq topshiriq asosida) ya'ni jismoniy madaniyat tarixi va sportni boshkarish fanining predmeti, maqsad va vazifalarining

## Sport o'yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg'ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

tahlil qilish Noma'lum (ularni topish yangi bilimlarni shakllanishiga olib keladi) jismoniy tarbiya sohasining maqsad va vazifalarini tahlil qilish; Avvalgi bilimlar tajribasiga asoslanish. Jumladan, hozirga davrda Uzbekiston sportchilarining Olimpiya uyinlaridagi ishtiroki? (Savol tashlanadi, asoslanadi, yangi bilimlar beriladi) ya'ni predmetning maqsad va vazifalarini anglagan holda jamiyat talablarini xisobga olib, zamonaviy shaxsning mezonlari yaratiladi.



Muammoli o'qitishni tashkil etishning shartlari: Birinchi sharti: o'quv-axborot materiallarini yetkazib berish; Ikkinchi sharti: muammolarni yechish usulini xilma-xilligini taminlash; Uchinchi sharti: talabaning ushbu mavzuni o'zlashtirishdan manfaati, maqsadi va bilish imkoniyatlaridan foydalana olishi. Muammoli o'qitish metodlari -ijodiy yondoshuv metodi, qisman ijodiy-yondoshuv yoki evristik, axborot-larni muammoli bayon qilish, axborotni muammoli boshlash orqali bayon qilish. Ta'lim tamoyili, turlari, shakllari va ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlari *TA'LIM* – insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni talabalar ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega. Ta'lim tamoyillari deb, umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yo'nalishi talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim va malaka xosil qilishning asosiy qonun va qoidalarining yig'indisiga aytiladi. O'qitishning tarbiyalovchi xarakteri: o'qitish va tarbiyalash jarayonlari uzviy bir-biriga bog'liq bo'ladi. O'qitish bilim berish vazifalarini hal qilish bilan birga talabalarga juda katta tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. U talabalarining bilish imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularning o'quv va mehnat faoliyatidagi faolligi va mustaqilligini,

## Sport o'yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg'ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

bilimga qiziqishini oshirishga yordam beradi. Namunalardan foydalanish tamoyili: o'qituvchi o'quv materialining mazmunini tushuntirish uchun har doim yaxshi namunalarni tanlashga harakat qilishi kerak. Yaxshi model, amaliyotdan tipik misollar, yaxshi hamda yomon mahsulotlar ham kutilgan darajadagi natijaning sifati qanday bo'lishi yoki bo'lmasligini aniq ko'rsatadi. Ilmiylik tamoyili: o'qituvchi o'quv materialining mazmunini tushuntirish uchun har doim yaxshi namunalarni tanlashga harakat qilishi kerak. Yaxshi model, amaliyotdan tipik misollar, yaxshi hamda yomon mahsulotlar ham kutilgan darajadagi natijaning sifati qanday. Talabalarga ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng yangi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak. Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida talabalarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi.

Ta'lim metodlari: suxbat, davra suxbati, akliy xujum, kichik guruxlarda ishlash, klaster, sinkveyn (axborotni yigish), video topishmok, zanjir, yumaloklangan kor uyini, rolli uyin, akl-zakovatni rivojlantiruvchi uyinlar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Oliy ta'limda faol va interaktiv ta'lim texnologiyalari (darslarni o'tkazish shakllari): darslik / komp. T.G. Muxin. - Nijniy Novgorod: NNGASU, 2013. - 97 p.
2. Gushchin Yu.V. Oliy ta'limda interfaol o'qitish usullari // "Dubna" Xalqaro tabiat, jamiyat va inson universitetining psixologik jurnali, 2012. - No 2. - B. 1-18.
3. Zaxarova, I.G. Ta'limda axborot texnologiyalari: oliy ta'lim uchun darslik. darslik muassasalar / I.G. Zaxarov. - M.: "Akademiya", 2008., 338-bet
4. Kovalenko E.M. Ta'limdagi interaktiv texnologiyalar va elektron ta'lim elementlari // Ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida interaktiv ta'limning zamonaviy tizimi. Ilmiy-metodik konferensiya materiallari; Janubiy Federal Universiteti). - Rostov-na-Donu: Janubiy federal universiteti nashriyoti. - B.47-50.
5. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: darslik / mualliflar jamoasi; ed. Bordovskoy N.V. - 2-nashr, o'chirilgan - M.: KNORUS, 2011. - 432 b.
6. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent 2003. - 174 b.
7. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi mutaxassisleri tayyorlash texnologiyasi. – Toshkent "Nizomiy TGPU". 2000. - 52 b.
8. Tohirovich, Khamrakulov Tulkin, Sarukhanov Arsen Albertovich, and Shokirov Shukhrat Gayratovich. "New technologies increasing the healthy lifestyle of students in physical education." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL

SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor:  
7.429 11.11 (2022): 225-228.

9. Anvarovich, Irmatov Shavkat, Khamrakulov Tolqin Tokhirovich, and Quvvatov Umid Tursunovich. "Use problem-solving techniques in school gymnastics." Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 12.4 (2022): 512-513.

10. Sultonov, Usmon Ibragimovich. "METHOD OF CONTROLLING THE TRAINING PROCESS OF LONG-DISTANCE RUNNERS." Eurasian Journal of Academic Research 2.3 (2022): 132-137.

11. Ibragimovich, Sultonov Usmon. "DYNAMICS OF MORPHOLOGICAL INDICATORS IN THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF LONG-DISTANCE RUNNING." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.01 (2022): 129-132.

12. Ортиқов, М., et al. "БИАТЛОНЧИЛАРНИМУСОБАҚАЛАРГА ТАЙЁРЛАШДА МАШҒУЛОТЮКЛАМАЛАРИ ВОСИТАЛАРИНИНГ ОПТИМАЛАШТИРИШ." Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) 1.4 (2021): 156-163.